BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARINING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMO SIFATIDA

Ismoilova Shaxnoza Abdurashidovna, Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail:ishaxnoza17@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish dolzarb muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, pedagogik mahorati, kommunikativ ko‘nikmalari va shaxsiy fazilatlari yosh avlodga ta’sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada kasbiy sifatlar tarkibi, ularni shakllantirish omillari, mavjud muammolar hamda ularning yechimlari tahlil qilingan. Shuningdek, so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, tajriba asosida takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy sifatlar, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi, pedagogik kompetensiya, ta’lim sifati, kommunikativ ko‘nikmalar, kasbiy rivojlanish, ta’lim muammolari.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ ПЕДАГОГОВ БУДУЩИХ ДОУ КАК ПРОБЛЕМА

Аннотация: В данной статье развитие профессиональных качеств воспитателей ДОУ рассматривается как актуальная проблема. данной статье развитие профессиональных качеств воспитателей ДОУ рассматривается как актуальная проблема. Профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, коммуникативныанной статье развитие профессиональных качеств воспитателей ДОУ рассматривается как актуальная проблема. Профессио данной статье развитие профессиональных качеств воспитателей ДОУ рассматривается как проблемаванные на опыте.

Ключевые слова: профессиональные качества, дошкольное образование, воспитатель, педагогическая компетентность, качество образования, коммуникативные навыки, профессиональное развитие, проблемы воспитания.

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL QUALITIES OF EDUCATORS OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A PROBLEM

Annotation: This article considers the development of professional qualities in

Educators of preschool educational institutions as an urgent problem.his article considers the development of professional qualities in Educators of preschool educational institutions as an urgent problem. The professional competence, pedahis article considers the development of professional qualities in Educators of preschool educational institutions as an urgent prhis article considers the development of professional qualities in Educators of preschool edce.

Keywords: professional qualities, preschool education, educator, pedagogical competence, quality of Education, communicative skills, professional development, educational problems.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarga ta’lim va tarbiya berish sifatini oshirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimi oxirgi yillarda chuqur e’tibor markazida bo‘lib, erta yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishida muhim bosqich sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa, ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilardan yuqori darajadagi kasbiy sifatlar, ya’ni pedagogik mahorat, axloqiy fazilatlar, zamonaviy metodik bilimlar va kommunikativ ko‘nikmalarni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5867-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, shuningdek, 2021-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlar malakasini tizimli ravishda oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etishni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda tarbiyachilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarining joriy etilishi, xorijiy tajriba asosida kasbiy rivojlanish modellarining qo‘llanilishi bu sohadagi yangiliklar sirasiga kiradi. Biroq amaliyotda tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishda bir qator muammolar – metodik tayyorgarlikdagi kamchiliklar, motivatsiya yetishmovchiligi, zamonaviy yondashuvlar bo‘yicha bilimlarning sustligi kabi masalalar kuzatilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar soni so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidan o‘tgan dissertatsiyalarda bu muammoning turli jihatlari qamrab olingan.

Karimova Z.M. tomonidan himoya qilingan “Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari” mavzusidagi PhD dissertatsiyada tarbiyachilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va munosabatlar tizimini shakllantirish, ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish masalalari chuqur yoritilgan. Muallif innovatsion metodlarni qo‘llash orqali kasbiy sifatlarni mustahkamlash mexanizmlarini ilmiy asoslab bergan.

Yo‘ldosheva M.M. tomonidan tayyorlangan “Maktabgacha ta’lim tizimida pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyada mavjud muammolar – o‘quv dasturlari va metodik materiallarning yetarli emasligi, amaliyot bilan nazariyaning uzviy bog‘lanmaganligi, tarbiyachilar motivatsiyasining pastligi kabi jihatlar tahlil qilingan. Dissertatsiyada kasbiy tayyorgarlikda kompetensiyaviy yondashuvning dolzarbligi ta’kidlangan.

Abdurahmonova D.S. esa o‘zining dissertatsiyasida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarida pedagogik refleksivlik va o‘z-o‘zini baholash sifatlarini shakllantirish masalasiga e’tibor qaratadi. Bu tadqiqotda kasbiy o‘sishning ichki (motivatsion) mexanizmlari ham ko‘rib chiqilgan.

Umuman olganda, PhD darajasidagi ilmiy tadqiqotlar tarbiyachilarda kasbiy sifatlarni rivojlantirishda: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy model, malaka oshirishning modullashtirilgan shakllari katta ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda. Ammo ushbu dissertatsiyalarda nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy model va mexanizmlarning yetarlicha joriy etilmaganligi, ba’zan esa umumlashtirilgan yondashuvlar bilan cheklanilganligi kuzatiladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o‘quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dasturlashtirish va raqaamlashtirish modellari kabi metodlardan foydalanildi.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarda kasbiy sifatlarini rivojlantirish yo‘llari mavzusi yuzasidan ilmiy asoslangan natijalar.

Kasbiy sifatlar majmuasi aniqlashtirildi: Maktabgacha ta’lim tarbiyachilari uchun zarur bo‘lgan asosiy kasbiy sifatlar – pedagogik mahorat, kommunikativ ko‘nikmalar, kasbiy motivatsiya, metodik bilimlar, muomala madaniyati va bolalar psixologiyasi bo‘yicha chuqur tushunchalar – sifatida belgilandi.

Kasbiy sifatlarni shakllantirishda mavjud muammolar aniqlandi: Tarbiyachilar tayyorlovida quyidagi muammolar mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi:

- nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi nomutanosiblik;
- innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni yetarli darajada qo‘llamaslik;
- tarbiyachilarning o‘z ustida ishlashga nisbatan past motivatsiyasi;
- metodik qo‘llanmalarning eskirganligi yoki yetishmasligi.

Tarbiyachilar kasbiy rivojlanishining asosiy omillari aniqlandi: Ilmiy tadqiqotlar natijasida kasbiy sifatlarning rivojlanishida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi:

- tizimli ravishda malaka oshirish kurslarining mavjudligi;
- kasbiy refleksiya va o‘z-o‘zini baholash amaliyotining joriy etilishi;
- kasbiy faoliyatda zamonaviy metodik yondashuvlar (STEAM, o‘yinli o‘qitish, loyihaviy metodlar)dan foydalanish.

Pedagogik faoliyat samaradorligini oshiruvchi modellar tavsiya etildi: O‘rganilgan manbalar asosida tarbiyachilar uchun kompetensiyaviy yondashuv asosidagi model hamda kasbiy portfel yuritish tizimini joriy etish zarurligi asoslab berildi.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: Dissertatsiyalar tahliliga tayangan holda quyidagi amaliy choralar tavsiya qilinadi:

- maktabgacha ta’lim tarbiyachilari uchun onlayn metodik platformalarni yaratish;
- zamonaviy psixologik-pedagogik treninglar orqali refleksivlikni rivojlantirish;

❖ kasbiy sifatlarni baholashning reyting asosidagi tizimini ishlab chiqish.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirish – nafaqat ta’lim sifati, balki bolalarning jismoniy va ruhiy kamoloti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dolzarb masaladir. Zamonaviy pedagogika yondashuvlari kasbiy kompetensiyaning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko‘nikma, kommunikativ madaniyat va shaxsiy fazilatlar bilan uyg‘unlashgan holda shakllanishini talab qiladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning aksariyati amaliy jihatdan faol bo‘lishiga qaramay, metodik yangiliklarni tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa ularning kasbiy motivatsiyasi va tashabbuskorligini pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, tarbiyachilarning malaka oshirish kurslariga yetarli ravishda jalb etilmasligi, ularning zamonaviy kompetensiyalarni egallash imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

PhD darajasidagi tadqiqotlarda ilgari surilgan yondashuvlar – kompetensiyaviy model, reflektiv treninglar, shaxsiy portfel yuritish kabi g‘oyalar ushbu muammoning amaliy yechimlariga asos bo‘la oladi. Shuningdek, so‘nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va konsepsiyalar (xususan, Maktabgacha ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi) tarbiyachilar kasbiy sifatlarini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni mustahkamlab bermoqda.

Shunday ekan, ushbu muammoning hal qilinishi uchun kasbiy rivojlanishga oid tizimli yondashuvlar, malaka oshirish dasturlarini modernizatsiya qilish va pedagogik innovatsiyalarni tarbiyachilar faoliyatiga singdirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish nafaqat ta’lim sifati, balki bolaning shaxs sifatida kamol topishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy sifatlar bu faqatgina nazariy bilimlar emas, balki tarbiyachining pedagogik mahorati, innovatsion yondashuvlarga tayyorligi, muomala madaniyati, bolalar psixologiyasi va ehtiyojlariga mos yondasha olish qobiliyatidir.

Shundan kelib chiqib, kasbiy sifatlarni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv, uzluksiz ta’lim, innovatsion metodlar va shaxsiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhit muhim ahamiyatga ega.

Shu boisdan, maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni takomillashtirish, mavjud bilimlarni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish va kasbiy kompetensiyalarning uzluksiz shakllanishini ta’minlash dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy metodik yondashuvlar (STEAM, o‘yinli o‘qitish, loyihaviy metodlar)dan foydalanish orqli kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5867-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-yil, 8-oktabr.

2. Karimova Z.M. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish shart-sharoitlari: Ped. fan. bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. – Toshkent: TSPU, 2021.

3. Yo‘ldosheva M.M. Maktabgacha ta’lim tizimida pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish: Ped. fan. bo‘yicha PhD dissertatsiyasi.

– Toshkent: TDIU, 2020.

4. Abdurahmonova D.S. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarida reflektiv yondashuvni shakllantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. bo‘yicha PhD dissertatsiyasi.

– Toshkent: TDPU, 2019.

5. To‘xtayeva M.K. Maktabgacha ta’limda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari. // Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, №2, 2022. – B. 55–59.